



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi*



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 11 051 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 8 961 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 21 662 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,1 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to‘g‘risida umumiylumotlar (1- mart holatiga)



Yangi tashkil etilgan korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar (2025- yil yanvar-fevral oylarida)


2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 306 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 45,1 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,4 foiz, sanoat – 10,5 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida – 26,5 foiz, Sirdaryo – 14,7 foiz, Mirzaobod – 12,1 foiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- mart holatiga 11 051 tani tashkil etdi, ulardan 9 037 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 31,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 16,2 foiz, sanoat – 9,6 foiz, qurilish – 6,7 foiz, hududlar kesimida esa eng ko‘pi Guliston shahrida – 24,6 foiz, tumanlardan Sirdaryo – 12,4 foiz, Sardoba – 8,9 foiz, Boyovut – 8,7 foiz va Mirzaobodda – 8,6 foiz faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	2 716
Sirdaryo	1 365
Sardoba	984
Boyovut	961
Mirzaobod	950
Guliston	826
Yangiyer sh.	802
Sayxunobod	785
Oqoltin	720
Xovos	680
Shirin sh.	262

Yillar kesimida soni (birlikda)

2025 11 051

2023 13 544

2021 15 624

13 109 2024


16 154 2022

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 301 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	 44
Sanoat	 32
Qurilish	 14
Savdo	 138
Tashish va saqlash	 6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	 27
Axborot va aloqa	 8
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	 3
Boshqa turlar	 29

2025	301
2024	370
2023	412
2022	555
2021	458

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- mart holatiga 9 037 tani tashkil etdi, ulardan 8 961 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,6 foiz, sanoat – 11,7 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,8 foiz, tashish va saqlash – 3,1 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,6 foiz.


Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 774	
Sanoat	1 056	
Qurilish	729	
Savdo	3 430	
Tashish va saqlash	277	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	616	
Axborot va aloqa	143	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	134	
Boshqa turlar	878	

Yillar kesimida soni (birlikda)




Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar-fevral oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 125 tadan 138 taga (o‘sish 13 taga), qurilish – 9 tadan 14 taga (o‘sish 5 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 26 tadan 27 taga (o‘sish 1 taga) ko‘paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari

kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (24,1 foiz), Sirdaryo (12,4 foiz), Sardoba (9,6 foiz) va Mirzaobod (8,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 54,9 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**
(2025- yil 1- mart holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sardoba (20,0 foiz), Mirzaobod (16,8 foiz), Oqoltin (12,0 foiz) va Sayxunobod (10,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 9,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,2 foizini ishlab chiqarish sanoati, 5,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- mart holatiga)



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 50,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 20,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 29,0 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025-yil 1-mart holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 3 422 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.


Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 61,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 30,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



2 104 Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

1 031 Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

296 Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

(2025- yil 1- mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga 618 taga yetib, ularning 615 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,2 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,8 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 68,8 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 27,3 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

57

49



Noshirlilik faoliyati

20

22

Axborot xizmati
ko'rsatish sohasidagi
faoliyat



Kino-videofilmlar,
televizion dasturlar,
fonogrammalar va musiqali
yozuvlarni ishlab chiqish

4

2

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radio eshittirish



(2025- yil 1- mart holatiga)

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 134 ta yoki 75,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 93,8 foizi sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,1 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta’milanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,1 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



Sog‘liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat

167



Yashash uchun joy
bilan ta’minlangan
holda parvarishlash



2

Yashash uchun joy bilan
ta’milanmagan holda
ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

9



(2025- yil 1- mart holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



2025- yil 1- mart holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 2,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 72,3 foizni tashkil etdi;

- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining korxonalar soni 23,4 foizni;

- pochta va kuryerlik yo‘nalishidagi korxonalar soni 4,3 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Pochta va kuryerlik faoliyati



Pochta va kuryerlik faoliyati

Omchor xo‘jaligi
va yordamchi
transport
faoliyati



65



Quruqlikdagi
va quvur
transporti



201



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot**


(2025- yil 1- mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalilanildi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik
subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**



(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

275

2025

403

2023

409

2021

333

2024

516

2022

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



35



30



14

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish



132

Savdo



6

Tashish
va saqlash



18

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



8

Axborot
va aloqa



3


Sog'lijni saqlash
va ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



29

Boshqa turlar

Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Amaldagi 9 037 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- mart holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 7 753 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,8 foiz, sanoat – 11,3 foiz, qurilishda – 8,3 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Guliston shahrida – 310 ta, Boyovut – 95 ta va Sirdaryoda – 89 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 371 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 107 ta, sanoat – 91 ta va qurilish sohasida – 82 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)





Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra 259 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 34,4 foiz, savdo – 27,4 foiz, sanoatda – 25,1 foiz, hududiy kesimida esa eng ko'pi Guliston shahar – 25,1 foiz, Guliston – 16,6 foiz va Boyovut tumanida – 14,3 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)****Hududlar kesimida soni (birlikda)**


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Xovos (17,1 foiz), Sirdaryo (15,0 foiz) va Boyovut (14,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



3 873
Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish



150
Baliq ovlash
va akvakultura



2
O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash




Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil 1- mart holatiga)


O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalişlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 208 ta korxonalardan 74 tasi qo'shma korxonalar va 134 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoxda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,1 barobarga oshdi.


Yetakchi o'rinni 74 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mayjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 35,6 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,4 foiz), Turkiya (ulushi 13,0 foiz), Tojikiston (ulushi 6,7 foiz) va Qozog'iston (ulushi 6,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.



(2025- yil 1- mart holatiga)

Mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta‘minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo 23,1 foiz, Yangiyer shahar – 18,3 foiz, Guliston shahar – 17,3 foiz va Mirzaobodda – 9,1 foiz to‘g‘ri keladi.




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘sinqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

(2025- yil 1- mart holatiga, birlikda)

qo‘shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlar bazalari o‘zaro birxillashtirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



*Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.: 67 236-70-00*

PRESS-RELIZ

